
Kikboksing: Farg'ona shahri O'zbekiston kubogi musobaqalari mezbonlik qilmoqda

Farg'ona shahridagi muhtasham «Samo» sport majmuasida sportning Kikboksing turi bo'yicha «O'zbekiston kubogi» musobaqalari o'tkazilmoqda.

Mazkur musobaqaning tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi o'rinbosari Fayzulla Qosimov, O'zbekiston kikboksing assotsatsiyasi rahbari, viloyat Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi boshlig'i Nodirbek Hakimovlar hamda hamkor tashkilotlar ishtirok etdi.

Mazkur musobaqada yurtimizning barcha hududlaridan 1500 nafarga yaqin sportchilar 5 kun davomida o'zaro bahs olib boradi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-19 20:18:44